

DAUN SINDROMINING BELGILARI VA SABABLARI

Musayeva Nargiza Sayfullayevna

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus
pedagogika kafedrası, PhD v/b professor*

Mirkamilova Sa'diya

803-SPD talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo miqyosida va shu bilan birga mamlakatimizda so'nggi yillarda tarqalib borayotgan Daun sindromi, sindromning o'ziga hos xususiyatlari, kelib chiqishi sabablari, bu sindromli bolalar bilan olib boriladigan davo choralari haqida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Daun sindromi, mongolizm, 21-xromosoma, trisomiya, mozaik, inklyuziv ta'lim*

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim – tarbiya tizimi negizda muayyan maqsadlar yotadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli uning istiqboli shu davlat, belgilanadi. Shuning uchun ham maxsus (korreksion) pedagogika umumiy pedagogikaning tarbiya qismi sifatida rivojlanishida muammolari bo'lishi jamiyat a'zolarining ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanar ekan. Ularning sog'lom jamiyat a'zolari qatorida ijtimoiy moslashuvni ta'minlashni asosiy vazifa qilib oladi.

Shunga ko'ra, maxsus pedagogika qarshisida turgan muxim vazifalardan biri oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lanishning yangi usuli va yo'llarini izlab topish, bu yo'lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqazo etadi. Mamlakatimizda rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalarning sog'lom tengqurlari qatorida milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy ma'naviy – axloqiy, jismoniy jixatdan kamol topishlari jamiyatdagi ijtimoiy hayotiga mustaqil yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev quyidagi fikrlari taqsiinga sazovordir: “Aziz vatandoshlar! ... imkoniyatlari cheklangan fuqarolarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, ularning bilim olishlari, malaka oshirishlari, mehnatga chiqishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish — davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lsin” deb ta'kidladi. Bundan tashqari, prezident bir nechta rasmiy nutqlarida Daun sindromiga ega bolalar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash va ular uchun maxsus ta'lim va rehabilitatsiya markazlarni yaratish kerakligini ta'kidlagan. O'zbekiston hukumati nogiron bolalarga qarash, ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va bu sohada zamonaviy metodlarni joriy etishga harakat qilmoqda.

Turli hil ta'lim extiyojlariga ega bo'lgan bolalarga davlatimiz tomonida alohida e'tibor qaratilib, uinarni to'laqonli ta'lim olishlari uchun inklyuziv ta'lim joriy etilgan. Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarga, jumladan imkoniyati cheklangan bolalarga (masalan, Daun sindromli bolalarga) ham, bir xil ta'lim imkoniyatini yaratishdir. Uning

asosiy maqsadi — har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularni jamiyat hayotiga faol qo'shishdir. Daun sindromli bolalarga ham hozirgi kunda alohida yondashuv bilan qaralmoqda. Inklyuziv ta'limda Daun sindromli bolalar bilan ishlashning asosiy tamoyillari. Individual yondashuv – har bir bolaning o'z rivojlanish darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Qo'llab-quvvatlovchi muhit – sinfda do'stona, to'siqsiz, rag'batlantiruvchi muhit yaratiladi. Maxsus pedagogik yondashuv – logoped, defektolog, psixolog bilan hamkorlikda ishlash. Moslashtirilgan o'quv dasturi – o'quv materiali soddalashtirilgan, ko'rgazmali va amaliy shaklda beriladi. Ota-ona ishtiroki – bolani tarbiyalash va o'qitishda ota-onalar faol ishtirok etadi.

Bugungi kunda skrining markazining tashkiliy tuzilmasi Respublikaning barcha hududlarida mavjud. Daun sindromi haqida so'z yuritishdan avval har bir inson ushbu kasallik haqida ko'proq tushunchaga ega bo'lishi kerak. 21-mart xalqaro Daun sindromiga ega odamlar kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu kasallik irsiy chetlashish natijasida yuzaga keladi.

“Sindrom” so'zi ma'lum belgilar yoki xususiyatlarning mavjudligini anglatadi. Daun sindromi birinchi marta 1866 yilda ingliz shifokori Jon Lengdon Daun tomonidan tasvirlangan va uning nomi bilan atalgan. Deyarli bir asr o'tgach, 1959 yilda fransuz olimi Jerom Lejeune ushbu sindromning xromosomal kelib chiqishini asoslab berdi va bugungi kunda biz bilamizki, Daun sindromi irsiy holat bo'lib u homiladorlik paytidan boshlab mavjud bo'lib, unda qo'shimcha xromosoma mavjudligi bilan belgilaniladi.

Daun sindromi eng keng tarqalgan genetik anomaliyadir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har olti yuzdan sakkiz yuzgacha yangi tug'ilgan chaqaloq Daun sindromi bilan tug'iladi. Daun sindromi kasallik emas, balki organizmdagi sezilarli o'zgarishlarga olib keladigan genetik anomaliyadir. U davolanmaydi shuning uchun “kasallik” emas, balki “sindrom” deyish to'g'riroq. Xromosoma otadan, ikkinchisi esa onadan meros bo'lgan holda o'tadi.

Daun sindromi 21 xromosomaga qo'shimcha genetik material biriktirilgan uchta hujayra bo'linish anormalliklaridan biri sodir bo'lganda yuzaga keladi.

Aynan shu sindromga xos bo'lgan bolaning xususiyatlarini aniqlaydigan 21 xromosoma juftligidagi patologiya. Kichkintoyda xromosoma anomaliyasi bor yo'qligni aniqlashning yagona yo'li kindik ichakchasidagi suyuqlikni tahlil qilishdir. Xavf ostida bo'lgan barcha onalarga buni qilish tavsiya etiladi.

Daun sindromining uchta genetik o'zgarishi mavjud:

1. Trisomiya Daun sindromi holatlarining 90% dan ortig'i trisomiya 21 sabab bo'ladi. Trisomiya 21 bo'lgan bolalar ikkita o'rniga 21 juftda uchta xromosomaga ega. Bunday holda, bolaning barcha hujayralarida bunday nuqsonlar mavjud. Ushbu buzulish tuxum yoki sperma rivojlanishdagi hujayra bo'linishdagi anormalik tufayli yuzaga keladi. Ko'pgina hollarda, bu tuxumning pishib etish davrida xromosomalarning ajratilmasligi bilan bog'liq.

2. Mozaiklik Daun sindromining bu noyob shaklida (taxminan 2-3 % hollarda) faqat ba'zi hujayralar 21-juftlikda qo'shimcha xromosomaga ega. Oddiy va g'ayritabiiy

hujayralarning bu mozaikasi urug'lantirilgandan keyin esa hujayra bo'linishidagi nuqson tufayli yuzaga keladi.

3. Translokatsiya Daun sindromi, agar 21-xromosomaning bir qismi kontseptsiyadan oldin yoki homiladorlik paytida sodir bo'lgan boshqa xromosomaga (translokatsiya) siljigan bo'lgan ham paydo bo'lishi mumkin. Bu kasallika chalingan bolalar 21-juftda ikkita xromosomaga ega, ammo ular boshqa xromosomaga biriktirilgan 21-xromosomadan qo'shimcha materialga ega. Daun sindromning bu shakli kam uchraydi taxminan 4% hollardagina biroq ko'p hollarda Daun sindromi bo'lgan bolalarning atigi 4 foizida translokatsiya mavjud, ularning yarimiga yaqin bu genetic nuqsonni ota-onalaridan biridan meros qilib olgan. Translokatsiya irsiy bo'lsa bu ona yoki ota genetic mutatsiyaning muvozanatli tashuvchisi ekanligini anglatadi.

Daun sindromi yuzaga kelishi ehtimolning ona yoshiga bog'liqligini ko'rsatuvchi grafik:

Daun sindromi bilan tug'iladigan bolalar soni har 800 yoki 1000 chaqaloq uchun 1 tani tashkil etadi. 2006-yilda kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazi buni Qo'shma Shtatlarda 733 tadan bitta holat deb baholaydi (yiliga 5 422 yangi holat). Ularning 95% ga yaqini 21-xromosoma trisomiyasidir. Daun sindromi barcha etnik guruhlarda va barcha iqtisodiy tabaqalarda uchrashi mumkin.

Onaning Yoshi ham Daun sindromi bo'lgan bolaga homilador bo'lish ehtimoliga ta'sir qiladi:

- agar onalar 20 dan 24 yoshgacha bo'lsa, bu ehtimollik 1562 ga 1;
- 30 yoshgacha bo'lsa – 1000 ga 1;
- 35 yoshdan 39 yoshgacha – 214 ga 1;
- 45 yoshdan oshganda esa ehtimol 19 ga 1 nisbatida bo'ladi.

Ehtimollik onaning yoshi o'tgani sayin oshishiga qaramay, ushbu sindromli bolalarning 80 foizi 35 yoshgacha bo'lgan ayollarda tug'iladi. Bu holat mazkur yosh guruhida umumiy tug'ilishning yuqoriligi bilan bog'liq.

Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, otaning Yoshi, ayniqsa u 42 yoshdan oshgan bo'lsa ham bolada sindrom rivojlanishi xavfini oshiradi.

1866-yilda mazkur mavzu bo'yicha chop etilgan hisobot e'lon qilingandan keyin keng tarqaladi. Epikantus tufayli Daun mongoloidlar atamasini ishlatgan (sindrom esa "mongolizm" deb nomlangan) Daun sindromi tushunchasi 1970 – yillarga qadar irqchilikka juda bog'liq edi. Bardo Universitetidan Mete Rivolla Shalon – syur –Sonda cherkov yaqinidagi nekropolda taxminan 1500 yil muqaddam yashagan va Daun sindromi uchun xarakterli belgilari bo'lgan bola qoldiqlarini aniqladi, bu ushbu sindromning eng qadimiy aniqlangan holati edi. Mete ushbu bolaning dafn marosimi boshqalarnikidan farq qilmasligi, ya'ni ushbu sindromdan aziyat chekkan odamlar ijtimoiy tabaqalanmaganligi bildirgan. XX asrda Daun sindromi yetarlicha keng tarqalgan tashxisga aylandi. Daun sindromi yetarlicha keng tarqalgan tashxisga aylandi. Daun sindromi bo'lgan odamlar ko'p qayd etilgan, ammo alomatlarining faqat bir qismi to'xtatish mumkin. Daun sindromi bilan kasallangan odamlarning ko'pchiligi chaqaloqlik

yoki bolalik davrida vafot etgan. XX asrning o'rtalarigacha Daun sindromi sabablari nomalumligicha qolardi, ammo ushbu sindrom va ona Yoshi o'rtasidagi bog'liqlik va sindromga barcha irq vakillar teng ehtimollik bilan chalinishi mumkunligi fanga ma'lum edi.

O'sha davrlarda sindrom genetic va nasliy omillarning kombinatsiyasi tufayli kelib chiqadi degan nazariya hukm suradi. Boshqa nazariyalar esa sindrom tug'ruq vaqtida jarohatlanish tufayli kelib chiqadi degan tushunchani ilgari surgan.

Tashxis: Homiladorlikning 11-14 haftaligi davrida homilador ayol tibbiy muassasaga yo'naltiriladi, u bolaning rivojlanish kasalliklari boyicha keng ko'lamli (tug'ruqdan oldingi)diagnostic tekshiruvlardan o'tadi.

Belgilari:Rivojlanishning ortda qolishi, xarakterli jismoniy xususiyatlar, yengil va o'rta darajadagi aqliy zaiflik.

Boshlanish vaqti:Ko'pincha homiladorlik arafasida, kamdan-kam hollarda urug'lantirilgandan keyin

Davolash: Jismoniy terapiya, kasbiy terapiya, nutq terapiyasi, ta'limni qo'llab-quvvatlash, qo'llab-quvvatlanadigan ish muhiti. Daun sindromini davolab bo'lmaydi, biroq bemorlarga ijtimoiy va boshqa ko'nikmalarni orttirishga yordam beradigan ko'plab uslublar mavjud.

Uchrash tezligi:5,4 million (0.1%) Daun sindromi kasali erkaklarda ham ayollarda ham kuzatiladi. Bu kasallika uchragan bemorning boshi nisbatan kichik, yuzi keng, ko'zlari bir-biriga yaqin joylashgan, og'zi yarim ochiq bo'ladi.

Kognitiv rivojlanish: Turli hollarda Daun sindromi bo'lgan bolalarning kognitiv rivojlanishi sezilarli darajada farq qiladi. Hozirgi kunda tug'ilishidan oldin bolaning o'zlashtirishi va jismoniy rivojlanishi qanchalik yaxshi bo'lishini oldindan aniqlab bo'lmaydi. Optimal usullarni aniqlash erta aralashuv yordamida tug'ilgandan keyin amalga oshiriladi. Har bir bola keng imkoniyatlarga ekanligi bois, maktabda ularning standartlashtirilgan ta'lim dasturidagi muvaffaqiyatlari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Daun sindromi bo'lgan bolalarda mavjud bo'lgan o'zlashtirish muammolarni sog'lom bolalarda bo'lishi ham mumkin,shuning uchun ota-onalar farzandlarini oddiy maktablarga berishga harakat qilishsa bo'ladi. Ko'p hollarda bolalar nutq bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. So'zni anglash va uning talaffuz etish orasida ma'lum bir kechikish kuzatiladi.Shuning uchun ota -onalar bolani logopedga olib borishi tavsiya etiladi.

Nozik harakat qobilyatlari rivojlanishda kechikadi va boshqa harakat qobilyatlaridan sezilarli daraja ortda qoladi. Ba'zi bolalar ikki yoshdan boshlab, ba'zilari esa 4 yoshligida yurishni boshlashlari mumkin. Odatda ushbu jarayonni tezlashtirish uchun fizioterapiya buyuriladi. Ko'pincha nutq va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanish tezligi kechikadi va bu eshitish muammolarni aniqlashga yordam beradi. Agar ular mavjud bo'lsa,bu erta aralashuv yoki eshitish asboblari belgilash orqali tuzatiladi. Daun sindromi bo'lgan bolalar maktabda odatda maxsus sinflarga bo'linadi. Buning sababi ularda o'rganish qobilyatining pastligi va tengdoshlaridan ortda qolish ehtimoli.

Tibbiy ko'rik va reabilitatsiya: Daun sindromi bolalarda yurak kasalliklari, qalqonsimon bez muammolari, eshitish va ko'z kasalliklari tez-tez uchraydi. Shuning uchun muntazam tibbiy ko'rik va davolash zarur.

Ta'lim va ijtimoiy moslashuv: Maxsus ta'lim muassasalari va inklyuziv ta'lim tizimlari bolalarning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Psixologlar, va logopedlar va maxsus pedagoglar ularning nutqini rivojlantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni oshirishda faol ishlaydi.

Jamoat qo'llab-quvvatlashi: Turli nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy xizmatlar va davlat dasturlari Daun sindromi bilan yashayotgan oilalarga maslahat, moliyaviy yordam va ijtimoiy himoya taqdim etmoqda.

Ota-ona va jamoani xabardor qilish: Jamiyatda Daun sindromi haqida ma'lumotlarni oshirish, odamlarning bu sindromga nisbatan mehr-oqibatli va to'g'ri munosabatda bo'lishini ta'minlash uchun ko'plab targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Daun sindromi — bu insonlarning genetik tuzilishidagi o'zgarish natijasida yuzaga keladigan murakkab va ko'p qirrali kasallik bo'lib, u inson hayotining ko'plab jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda Daun sindromining tarqalishi tobora oshib borayotgani shuni anglatadiki, jamiyat va tibbiyot tizimlari ushbu muammoni yechishda samarali choralar ko'rishi zarur.

Erta tashxis va genetik testlar yordamida homiladorlik davrida Daun sindromini aniqlash ota-onalarga farzandlari kelajagi uchun tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari, Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalarning sog'lig'i va rivojlanishini doimiy nazorat qilish, zarur tibbiy yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Yurak kasalliklari, eshitish va ko'z muammolari kabi qo'shimcha kasalliklarni vaqtida aniqlash va davolash, shuningdek, maxsus ta'lim va reabilitatsiya xizmatlarini tashkil etish ularning hayot sifatini yaxshilaydi.

- Tug'ruqdan keying tashxis:

“Yassi yuz”-90%

Braxisefaliya (kalla suyagining anomal kattaligi)-81%

Mushaklarning gipotoniyasi-80%

Ensaning yassiligi – 78%

Qo'l oyoqlarning kaltaligi -70%

Tish anomaliyalari-65%

5-barmoq klinodaktilyasi(qiyshiq jimjimaloq)-60%

Burun qansharining yassiligi – 52%

Burushgan til-50%

Kalta keng bo'yin-45%

Tug'ma yurak porogi-40%

Kalta burun-40%

Strabizm(g'ilaylik)-29%

Jamiyatda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish orqali Daun sindromi bilan yashayotgan shaxslarning ijtimoiy hayotga

integratsiyasi osonlashadi. Bu nafaqat ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, balki jamiyatimizdagi ko'p qirrali madaniyat va mehr-muruvvat muhitini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, ota-ona va jamoani Daun sindromi haqida xabardor qilish, noto'g'ri tushunchalar va stereotiplarni yo'qotishga xizmat qiladi. Bu yo'lda davlat va nodavlat tashkilotlarning ko'magida amalga oshirilayotgan targ'ibot ishlari katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Daun sindromli bolalar bilan birga o'qiydigan sog'lom bolalar: mehr-shafqatli, sabrli va bag'rikeng bo'lib voyaga yetadi; jamiyatda turli insonlarni qabul qilishni o'rganadi.

Daun sindromi bilan bog'liq korreksion ishlarni kengaytirish va takomillashtirish, zamonaviy tibbiyot, ta'lim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni birlashtirish orqali bu sindromga chalingan insonlarning hayotini yaxshilash, ularni jamiyatga to'liq qo'shish(integratsiya qilish) imkoniyatlarini yaratish mumkin. Bu esa inson huquqlari va teng imkoniyatlar tamoyillarini ta'minlashda muhim qadamdir va jamiyatimizning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Daun sindromli bolalar ham to'liq ta'lim olish, o'rganish, ijod qilish va do'st orttirish huquqiga ega. Inklyuziv ta'lim ularga shu imkoniyatni beradi. Asosiysi — to'g'ri yondashuv, sabr-toqat va muhabbat bilan ishlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

V.S Raxmanova "Defektologiya asoslari". Toshkent. "Voris-nashriyoti", 2012

L.Mo'minova, M. Ayupova va boshqalar "Maxsus pedagogika".

Toshkent. "noshir", 2012 y.

Resource Guide to Oral Motor Skill Difficulties in Children with Down Syndrome

Charles J. Epstein. The Consequences of Chromosome Imbalance: Principles, Mechanisms, and Models. Cambridge University Press [2007-yil].

D.S.Qaxarova " Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil

Inclusive Education in the Middle East. Gaad, Eman. London: Routledge, 2015.